# Mijoz shartnomasi

OPERATOR: «BASHIRSOFT» OILAVIY KORXONA · INPAY.UZ

Kuchga kirgan / so‘nggi tahrir sanasi: 30.06.2026

Ushbu hujjat O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga, xususan “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, inPAY.uz platformasida yig‘iladigan va qayta ishlanadigan shaxsga doir ma’lumotlarni tartibga soladi.

Platformada ro‘yxatdan o‘tish yoki xizmatdan foydalanish orqali foydalanuvchi o‘z shaxsiy ma’lumotlarini qayta ishlashga rozilik bildirgan hisoblanadi.

## 1 Umumiy qoidalar

1.1. Ushbu hujjat O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq ishlab chiqilgan.

1.2. Mazkur siyosat inPAY.uz platformasida yig‘iladigan va qayta ishlanadigan shaxsga doir ma’lumotlarni tartibga soladi.

1.3. Platformada ro‘yxatdan o‘tish yoki xizmatdan foydalanish orqali foydalanuvchi o‘z shaxsiy ma’lumotlarini qayta ishlashga rozilik bildiradi.

## 2 Operator haqida ma’lumot

| | |
|---|---|
| OPERATOR | «BASHIRSOFT» Oilaviy Korxona |
| STIR ( INN ) | 313418111 |

Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Billur MFY, MANZIL 4-mavze, 3-uy, 71-xonadon

| | |
|---|---|
| ELEKTRON POCHTA | support@inpay.uz |
| TELEFON | +998 33 571-77-17 |

Operator shaxsga doir ma’lumotlarga ishlov beruvchi va ularni himoya qilish uchun javobgar hisoblanadi.

## 3 Qayta ishlanadigan ma’lumotlar tarkibi

Platformada quyidagi ma’lumotlar yig‘ilishi mumkin:

F.I.Sh.;

telefon raqami;

email manzili;

Telegram ID;

to‘lov tranzaksiya ma’lumotlari;

IP manzil va texnik loglar;

zarurat tug‘ilganda pasport ma’lumotlari.

## 4 Ma’lumotlarni qayta ishlash maqsadi

Ma’lumotlar quyidagi maqsadlarda qayta ishlanadi:

to‘lovlarni qabul qilish va hisob-kitob yuritish;

shartnomaviy majburiyatlarni bajarish;

foydalanuvchini identifikatsiya qilish;

firibgarlikning oldini olish;

hisobot va audit yuritish;

qonuniy talablarni bajarish.

## 5 Ma’lumotlarni qayta ishlashning huquqiy asosi

Ma’lumotlarga ishlov berish quyidagi asoslarda amalga oshiriladi:

foydalanuvchining roziligi;

shartnomaviy majburiyatlar;

qonuniy talablar.

## 6 Transchegaraviy uzatish

**6.1.** Pasport va identifikatsiya ma’lumotlari faqat O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan serverlarda saqlanadi.

**6.2.** Xorijiy serverlarga shaxsni aniqlash imkonini bermaydigan texnik ma’lumotlar (masalan, operatsiya holati) yuborilishi mumkin.

**6.3.** Shaxsni aniqlovchi ma’lumotlar transchegaraviy tarzda uzatilmaydi.

## 7 Saqlash muddati

Ma’lumotlar quyidagi muddatlarda saqlanadi:

shartnoma amal qilgan davr mobaynida;

mijoz 3 oy davomida platformada faol bo‘lmagan holatda;

qonunchilikda belgilangan muddat davomida;

yoki foydalanuvchi talabiga ko‘ra o‘chirilgunga qadar.

## 8 Ma’lumotlar subyektining huquqlari

Foydalanuvchi quyidagi huquqlarga ega:

o‘z ma’lumotlari haqida axborot olish;

noto‘g‘ri ma’lumotlarni tuzatish;

ma’lumotlarni o‘chirishni talab qilish;

rozilikni qaytarib olish.

So‘rovlar 1 ish kuni ichida ko‘rib chiqiladi.

## 9 Axborot xavfsizligi choralari

Operator quyidagi choralarni ko‘radi:

serverlarni himoyalash;

kirish nazorati;

audit va monitoring.

## 10 Ma’lumotlarni uchinchi shaxslarga berish

Ma’lumotlar quyidagi hollarda taqdim etilishi mumkin:

qonun talab qilgan hollarda;

litsenziyalangan to‘lov tizimlariga;

sud va vakolatli organlarga.

## 11 Uchinchi shaxslarga berish chegarasi

**11.1.** Operator shaxsga doir ma’lumotlarni uchinchi shaxslarga faqat O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda va vakolatli sud organining qonuniy kuchga kirgan qarori asosida taqdim etishi mumkin.

**11.2.** Bunda uchinchi shaxsga faqat quyidagi ma’lumotlar berilishi mumkin: mijozning hisob raqami;
mijozning telefon raqami.

**11.3.** Mazkur ma’lumotlar boshqa shaxsga doir ma’lumotlar bilan birga yoki kengaytirilgan hajmda taqdim etilmaydi.

## 12 Yakuniy qoidalar

**12.1.** Mazkur siyosat platformada e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi. Operator siyosatga o‘zgartirish kiritish huquqiga ega.

**12.2.** Tizim barqaror ishlashi uchun mijozdan qo‘shimcha ma’lumotlar so‘ralishi mumkin: tranzaksiyalar summasi;
foydalanilayotgan platforma IP manzili;

hamyon ma’lumotlari;

shaxsni tasdiqlash uchun qo‘shimcha hujjat yoki media fayllar.

sayti uchun amal qiladi

© 2026 «BASHIRSOFT» Oilaviy Korxona · inPAY.uz — barcha huquqlar himoyalangan. STIR: 313418111 · Savdo Direktori: Ochilboyev Nurillo Nodirjon o‘g‘li